

NUTQNING FONETIK BO'LINISHI

Abdusalimova Gavhar Shavkatovna

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 12.07.2026

Revised: 13.07.2026

Accepted: 14.07.2026

Ushbu maqolada nutqning fonetik bo'linishini aniq izohlab, ularning bo'limlari fraza, takt, bo'g'in, tovushlarning har biriga alohida to'xtalib, misollar bilan tavsiflayman va olimlar fikrlari bilan tanishtiraman.

KALIT SO'ZLAR:

*Bo'g'in, takt, fraza,
ochiq va yopiq bo'g'in,
bo'g'in tiplari,
tovush, unli va undosh
tovushlar*

KIRISH QISM

Til bu nafaqat ijtimoiy hodisa, balki xalqni birlashtiradigan muhim omildir. Olimlarimiz tilni turli jihatlaridan ma'lum bir bolimlarga jihatlariga bo'lishgan va ularni ilmiy asoslab berishgan. Shu jumladan, Ferdinand Do Sossyur ilmiy qarashlari tilning murakkab ziddiyatlarga boy, ko'p tamonlama ijtimoiy hodisa ekanligiga asoslangan. Uning nazariyasida tilshunoslikning o'rganish obyekti nutqiy faoliyat bo'lishi kerak deydi. Shu jihatidan, til va nutqni mutlaq farqlab, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etishini izohlab berdi va asosiy farqi – til ijtimoiy, nutq individual hodisa ekanligini ilmiy asoslab berdi. Nutq haqida so'z borar ekan, ushbu maqolada nutqning fonetik bo'linishi mavzusiga alohida, uni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

ASOSIY QISM

Nutq so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisadir va ushbu vaqtda, albatta, tovushlar alohida – alohida talaffuz qilinmaydi. Tovushlar ma'lum tartibda, ketma-ket bir – biriga birikkan holda keladi. Boshqacha qilib aytganda, nutq ketma ket kelgan tovushlarning yig'indisidan iborat bo'lib, u talaffuz jarayonida oldinma keyin kelgan fonetik birliklarga bo'linadi. Nutqning ana shunday katta va kichik birliklarga bo'linishi uning fonetik bo'linishi deyiladi. Bunday bo'linish tilshunoslikda segmentatsiya (lot. Segmentum-bo'lak) deb yuritiladi. Bo'linish

natijasida hosil bo'lgan har bir bo'lak segment deb qaraladi. Har bir fonetik birlik artikulyatsion –akustik va eshitilish xususiyatlariga egadir. Ma'lumki, nutq to'rtta fonetik birliklardan iborat. Bular: fraza, takt, bo'g'in, tovush.

Ifoda materiali mavjud bo'lgan fonetik unsurlarni segment unsurlar deb ataladi. Bu jihatdan nutq tovushlarining barchasi segment unsurlardir. Supersegment unsurlar deganda esa, ifoda materiali bo'lmagan unsurlarni tushunamiz. Umuman olganda, nutqni kichik va katta bo'laklarga bo'lish jarayoni segmentatsiya deb ataladi va mazkur bolaklar segmentlar deb nomlanadi.

Supersegment unsurlar jumlasiga, odatda, bo'g'in urg'u va ohang kiritiladi. Bu vositalar segment unsurlar evaziga mavjuddir.

Bo'g'in bu jihatdan o'zining ifoda materialiga egadek tasavvur etilsa ham, bu holat real emas. Boshqacha qilib aytganda, bo'g'inning ifoda materiali tovush deb o'ylashimiz mumkin. Lekin tovush segment element sanaladi. Demak, bo'g'in supersegment vosita sifatida tovushlar evaziga yashaydi.

Nutqimiz turlicha hajmdagi fonetik bo'laklardan tashkil topadi. Ular quyidagilardan iboratdir: fraza, takt, so'z, bo'g'in, tovush.

Fraza nutqimizning eng katta fonetik birligi bo'lib, ikki pauza oralig'idagi ohang butunligi bo'lib, ko'p hollarda bir gapga teng boladi. Masalan: Otang bolasi bo'lma/odam bolasi bo'l. Mazkur maqolda ikkita fraza bor. Quyosh tik kelgan. Gulnor cholning chiqib ketishini kutib, devorga qisilgan xolda turdi. Shipi past, devorlari yupqa, torgina do'konxona, har vaqtdagidek ivirsiiq. Birinchi gap bitta, ikkinchisi ikkita frazadan tashkil topganligi aniq ko'rinib turibdi. Uchinchi gapda nechta fraza borligini aytish qiyin. Gap shundaki, nutqda frazani ajratish ko'pincha subyektiv sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu gapiruvchi nutqining ravonligi va tezligiga bog'liq. Tez gapiruvchilar bu gapni ikkita frazaga, sekin gapiruvchilar esa to'rt frazaga ajratishlari mumkin. Shunday ekan fonetik birlik bo'lmish jumla va grammatik birlik gap doimo bir –biriga tog'ri kelmaydi. Gap bitta yoki ikki va undan ortiq frazadan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Grammatik birlik bo'lmish gapning o'ziga xos xususiyatlari bor. Gap bo'lishi uchun ikki tomondan pauza bilan ajratilgan bo'lishning o'zi kifoya emas. Gap bir so'zdan yoki bir necha so'zning birikuvidan tuzilgan bo'lishi mumkin. Uning asosiy belgisi – predikativlikdir. Har qanday gap ega- kesimlik munosabatiga ega bo'lishi va bu birlikda doimo grammatik zamon, shaxs va mayl ifodalanishi zarur. Demak, fraza nutqning aloqa qilish birligi sifatidagi, eng kichik mustaqil birlik. Fraza termini hozirda jumla deb ham yuritiladi.

Frazaning ikki qisqa pauza orasiga joylashgan va yagona urg'u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo'g'inning yig'indisiga takt deb yuritiladi. Frazada nechta urg'u bo'lsa shuncha takt boladi. Asosan turkiy tillarda mustaqil so'zlar, ayniqsa ot turkumiga mansub so'zlar alohida takt hosil qiladi. Bunday vaqtda bu so'zlar asos urg'udan tashqari frazaviy urg'u ham oladi. Misol uchun,

1. Yaxshi so'z /kishiga/ baxt / keltiradi. (Maqol)

2.Go'zallik ham/ hayo bilan / sevish demakdir. (F.Petrarka)

O'zbek tilida ko'makchilar oldingi mustaqil so'zga ulanib, takt hosil qiladi:Zilola uchun, qishloq tomon, yotoqxonaga qadar kabi.Fonetik birlik bo'lmish takt grammatikadagi so'z birikmasi bilan qiyoslansa, ular hech vaqt bir- biriga to'g'ri kelmaydi.Negaki grammatik birlikda urg'uli so'z birdan ortiq bo'ladi.Gap shundaki, so'z birikmasi deganda kamida ikkita mustaqil so'zlarning sintaktik qo'shilmasi nazarda tutiladi.Masalan:xushxo'r qiyom, ko'rkam uy, mustahkam tinchlik va boshqalar.

So'z taktning ham, frazaning ham asosiy material qismini taqozo etadi.U takt ichida yoki o'zicha alohida urg'u bilan aytiladigan bo'lakdir. Biroq yordamchi so'zlar ko'pincha mustaqil so'zlarning urg'ularidan foydalanib nutqqa kiradi. Ular o'zicha urg'u ololmaydi:sen bilan, maktab tomon , dadam kabi va boshqalar.

Taktlar bo'g'inlardan tashkil topadi.Bo'g'in so'zning nutqda ajratib talaffuz qilish mumkin bo'lgan eng kichik bo'lagi bo'lib, bir yoki bir nechta tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir.Bo'g'inning tuzilishida unli tovushlar muhim rol o'ynaydi –unli tovushlarsiz bo'g'in tuzilmaydi.Masalan, oilalar so'zida to'rtta unli bor,demak to'rtta bo'g'in bor. O'zbek tilida so'zlar bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli bo'ladi.So'z bir zarb aytilsa, bir bo'g'inli , bir necha zarb bilan aytilsa, ko'p bo'g'inli hisoblanadi. Bo'g'inlar unli yoki undosh tovush bilan tugaydi, shunga ko'ra ular ikki xil bo'ladi:ochiq va yopiq bo'g'in. Unli tovush bilan tugagan bo'g'inlar ochiq bo'g'in hisobladi: lo-la, be-da-na,a-na, o-na. Undosh bilan tugagan bo'g'inlar yopiq bo'gin sanaladi: an-hor, meh-nat-kash, mak-tab kabi. O'zbek tilida bo'g'inlarning bir necha tiplari kuzatiladi. Bo'g'in tiplarini izohlashda quyidagi qisqartmalaridan foydalaniladi: V-lit. vokalizm – unli tovushlar tizimi; C- lot. konsonantizm -undosh tovushlar tizimi.

1.Faqat bir unlini ozidangina tuzilgan bo'g'inlar::o'-tin, i-chak,a-ka.TUZILISHI:V

2.Bir unli va undoshdan iborat bo'lgan bo'g'in. Unli – undosh:ish,osh,uch.
TUZILISHI:VC

Undosh –unli :ta-na ,to'-ra, to-g'a.TUZILISHI:CV

3.Bir unli va ikki undoshdan iborat bo'lgan bo'g'in .Unli –undosh – undosh:ayt,ilm,erk,ost .TUZILISHI :VCC

Undosh –unli- undosh :bor, ber,bul-bul,bur-gut.TUZILISHI :CVC

Undosh-undosh –unli:sta-kan,pre-zident.TUZILISHI:CCV

Qolganlari ham shu tarzda davom etib keteveradi.

Nutq tovushlari o'pkadan chiqqan havoning tovush paychalarini tebratib o'tishi , nutq organlarining talaffuz vaqtidagi faoliyati natijasida vujudga keladi.Nutq tovushlari ma'no ajratishda xizmat qiladi.Nutq tovushlari unli va undosh tovushlarga bo'linadi. O'pkadan chiqqan havo bo'g'izda tovush paychalariga tegib ,ularni tebratsa va u og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay o'tsa ,unli tovushlar hosil bo'ladi.Unli tovushlar tizimini o'rganadigan fonetikaning bir qismi vokalizm deyiladi.

Unlilar akustik tomondan ovozning ustunligi bilan xarakterlansa, fiziologik tomondan og'izning ochilishi darajasi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham professor V.A. Bogoroditskiy unli tovushlarni "og'iz ochuvchilar" deb atagan edi. O'zbek adabiy tilida oltita unli tovushlar bor: i, e, a, o, u, o'. Ular uch xil jihatdan tasnif qilinadi: 1. Tilning yotiq holatiga kora:

a) old qator unlilar: i, e, a;

b) orqa qator unlilar: o, u, o';

2. Tilning tik holatiga kora unli fonemalar uchga bo'linadi:

a) tor unlilar: i, u;

b) o'rta – keng unlilar: e, o';

d) keng unlilar: o, a.

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra:

a) lablangan unlilar: o', u, o;

b) lablanmagan unlilar: a, e, i;

Undosh fonemalar tizimini tekshiradigan fonetikaning bir qismi konsonantizm deyiladi. Undoshlar o'zining paydo bo'lish o'rnini, miqdori va boshqa sifatlari bilan unli fonemalardan farq qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush mavjud: b, v, g, d, j, z, y, k, l, n, m, ng, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, j.

1. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra:

Lab undoshlari:

a) lab – lab undoshlari: b, m, p;

b) lab – tish undoshlari: f, v.

Til undoshlari

a) til oldi undoshlar: t, d, s, z, sh, j, j, ch, n, l, r.

b) til o'rta undosh: y

d) til orqa undoshi: k, g, ng, q, g'.

Bo'g'iz undosh: h

2. Aytilish usuliga ko'ra undoshlar ikkiga bo'linadi:

a) portlovchilar: t, d, p, b, k, q, ch, j, g, m, n, ng;

b) sirg'aluvchilar: v, f, z, s, g', h, sh, j, y, l, r.

3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

a) sonorlar: m, n, ng, l, r;

b) shovqinli undoshlar: jaranglilar: b, v, g, d, j, z, y, l, m, n, ng, r, g', j; jarangsizlar: p, f, k, t, s, sh, x, ch, x, h, q.

4. Qorishiq undoshlar: j, ch

XULOSA

Nutqning fonetik bo'linishi tilshunoslikda muhim o'rin tutadigan hodisalardan biri hisoblanadi. Nutqning fraza, takt, bo'g'in, tovush kabi birliklarga ajralishi tilning fonetik tuzilishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu birliklar nutq jarayonida o'zaro bog'liq

holda namoyon bo'lib, talaffuzning to'g'ri va ravon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, nutqning fonetik bo'linishini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, til madaniyati va nutqning to'g'ri shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N. Uloqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2016- yil, 77-80 betlar
2. Л. В. Бондарко, Л. А. Вербицкая, М. В. Гордина. Основы общей фонетики. Л. 1983 73-81-betlar
3. Rasulov A. Nutq tovushlarining lingvistik tahlili. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.
4. Xolmuhammedov Sh. Fonetik tahlil asoslari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
5. Hojiyev A. Til va tafakkur. Toshkent: Fan, 1990.
6. Nematov H, Bozorov O. Til va nutq. "O'qituvchi", Toshkent. 2004.
7. Pike, C. Phonetics: A Critical Analysis. Chicago: University of Chicago Press, 1965.